



Mavzu: O'zbekistonda yoqilg'i va tog'-kon sanoatining vujudga keltirilishi hamda aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar

O'zbekiston tarixi fani o'qituvchisi
Islamova S.



O'zbekiston qazilma boyliklarining Markaz manfaatlariga xizmat qildirilishi



- O'zbekiston mineral xomashyo turlariga nihoyatda boy hudud hisoblangan. Respublikada ko'pgina foydali qazilmalar: oltin, uran, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, tabiiy gaz, neft, toshko'mir va boshqa konlar topilib, ishga tushirildi. Afsuski, bu konlarda qazib olingan foydali qazilmalar, xususan, oltin va uran, tabiiy gaz Markaz manfaatlariga xizmat qildi. Bu boyliklardan ularning haqiqiy sohibi bo'lgan o'zbek xalqi deyarli foydalanmadi.



Tabiiy gaz konlarining ochilishi

- O'zbekistonning tabiiy gaz mavjud bo'lgan tumanlarida faol geologik-qidiruv ishlari olib borishga XX asr 50-yillari boshlaridayoq kirishilgan edi. O'sha davrda Jarqo'rg'on Qorovulbozor, Sariqtosh tabiiy gaz konlari ochilgan. Buxoro-Xiva geologik mintaqalarida **Gazli** va **Jarqoq**, **Shimoliy** va **Janubiy Muborak**, **Uchqir**, **O'rtabuloq** va **Kultak** kabi yirik tabiiy gaz konlarining, shuningdek, Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tumanlarida **Odamtosh** kondensat koni, **Ustyurtda** istiqbolli gaz qatlamlari topildi



Buxorodagi Gazli shaharchasi



Qizilqumda oltin va uran konlarini o'zlashtirish



- XX asr 50-60-yillarida O'zbekistonda oltin ishlab chiqarish sanoati ancha rivojlandi. Oltin va uran ajratib oluvchi komplekslar, fabrikalar, oltin ruda kombinatlari, shuningdek, mis rudasini qayta ishlovchi kombinatlar ishga tushirildi.
- Bepoyon Qizilqum sahrosi markaziy tumanlarining sanoat jihatidan o'zlashtirilishi oltin va uran qazib olish sanoatining paydo bo'lishini taqozo etdi. 1958-yil 3-sentyabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo'yilishi bilan **Navoiy shahriga** asos solindi. Kombinat O'zbekistonning 5 ta viloyatida joylashgan 5 ta kon boshqarmasi va ular negizida qurilgan Navoiy, Sovetobod (hozirgi Nurobod), Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Muruntov Krasnogorsk, Zafarobod, Shalqar shaharchalariga asos solgan. Dunyoda eng yirik **Muruntov** oltin koni 1961-yili ishga tushirilib, dastlabki sof quyma oltin (999,9 probali) 1963-yil tayyorlangan



Yangi sanoat shaharlariga asos solinishi hamda demografik jarayonlardagi o'zgarishlar



- . O'zbekistonda zamonaviy kon-metallurgiya sanoatiga asos solinishi uning industrial qiyofasini o'zgartirib yubordi. Ko'plab yangi shaharlar va posyolkalar (shaharchalar) qurildi. Ayniqsa, ittifoqqa bo'ysunuvchi va "yopiq shaharlar" deb ataluvchi **Navoiy, Zarafshon** va **Uchquduq** kabi shaharlarga boshqa mintaqalardan ishchi kuchi jadallik bilan olib kelin- di. Yopiq shaharlar mahalliy hokimiyatga bo'ysunmagan. Bu joylarda maxfiy korxonalar joylashgan bo'lib, ular faqat Markazga hisob berardi. Ishlab chiqa- rishda band bo'lgan butun aholi odatda kelgindilardan tashkil topib, mahalliy aholi yopiq shaharlardan turli bahonalar bilan chiqarib yuborilgan



- Ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishini yopiq shaharlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu yerga Markazdan ko'chirib keltirilgan kadrlar navbatsiz uy-joy va turli imtiyozlar bilan ta'minlangan. Holbuki, qishloqlardan kelgan o'zbek yigit-qizlari uy-joyga ega bo'lish uchun eng qora ishlarni bajarishga majbur bo'lishar va ko'p yillar mobaynida uy-joy olish uchun navbatda turi- shardi. Shuningdek, mahalliy yoshlar doimo kamsitilgan.



- O'zbekistonda asrlar mobaynida shakllangan va mintaqaning tub yerli xalqlari vakillaridan iborat bo'lgan aholining ko'p millatli tarkibi sovet hokimiyati yillarida, xususan, XX asr 60 – 80-yillarida yevropalik turli xalqlar va boshqalar hisobiga yanada kengayib bordi. Bu paytda O'zbekistonda **127 ta** millat va elatlar yashagan. Bu yerda mahalliy aholidan tashqari turli mintaqalardan ko'chib kelgan ruslar, tatarlar, ukrainlar, koreyslar va boshqa xalqlar yashardi. Yirik sanoat korxonalarida ishlovchi o'zbeklar soni bu paytda nihoyatda kamayib ketdi.



Savol va topshiriqlar

- Yangi tashkil etilgan shaharlarni sanang. Ular nima maqsadda tashkil etilgan?
- “Yopiq shaharlar”, “zangori olov” iboralarini sharhlang.
- Yangi sanoat shaharlari paydo bo‘lishi bilan, ijtimoiy adolat tamoyillari buzildi. Buni qanday izohlaysiz?